



Oliy ta'lim

TA'LIM MUHITI

VA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARI

Zamonaviy mehnat bozori pedagoglarning professionalligi, madaniyati va shaxsiy xususiyatlariga yuqori talablar qo'yimoqda. So'nggi yillardagi ta'lim islohotlari kelajak pedagoglarining zamonaviy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu kasbni egallashga rag'batlantira oladigan ta'lim muhitini loyihalashni talab qiladi.



Tajribadan ma'lumki, talabaning muhit bilan o'zaro ta'siri va o'zini-ozini rivojlantirishining asosi uning individual tajribasidir. Pedagog talabaga bevosita ta'sir ko'rsatishda o'z bo'lishi mumkin, ammo u ijtimoiy muhit orqali bilvosita ta'sir ko'rsatishda cheksiz imkoniyatlarga ega. Bu esa muhitning kuchli pedagogik resurs ekanligini anglatadi.

Zamonaviy universitetlarda ta'lim muhitiga evolyutsion yo'l bilan erishilayotgani ham quvonarli. Fanlarni integratsiyadan ta'lim muhitini yaratishga intilish talaba shaxsini rivojlantirish va uning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashga qaratilgan. Demak, talabalarda kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirishning pedagogik vositasi ham aynan fanlararo bog'liqliklardir.

Fanlararo yondashuv milliy ta'limdagi integratsion jarayonlarning umumjahon rivojlanish tendensiyalarining tarkibiy qismi sifatida ko'rilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari xalqaro reytinglarda o'z o'rnini topishida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratishgan.

Ta'limdagi fanlararo integratsiyaning ahamiyati shundaki, u jamiyatda kechayotgan integratsion jarayonlarning o'ziga xos analogidir. Fanlararo hamkorlik o'rganilayotgan obyektning yangi munosabatlar tizimida ko'ra olish, bilimlardan

erkin va dinamik foydalanishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonini, ya'ni fanlararo bog'liqliklardan foydalanishga asoslangan o'quv jarayonini tahlil qilish natijasida fanlararo bog'liqliklarga xos bo'lgan ikki tomonlama xarakter aniqlangan. Bu hodisani har ikki tomoni o'quv fanlari mazmunidagi bog'liqliklarni ham, ko'nikmalar va faoliyat usullarini rivojlantirish metodlari o'rtasidagi bog'liqliklarni ham qamrab oladi. Shunday qilib, zamonaviy ta'lim standartlari nuqtayi nazaridan fanlararo bog'liqliklar – bu faqat bilimlar tizimini shakllantirish vositasigina emas, balki umumlashtirilgan faoliyat usullarini shakllantirish vositasidir.

Fanlararo bog'liqliklarni egallash ko'magida ta'lim jarayonida talabalarining umumiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan qobiliyatlar va ko'nikmalar shakllantiriladi. Bu kompetensiya bilim, tajriba, faoliyat turlari va harakatlarni insonning asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan turli sohalarida keng maqsadlarda qo'llay olish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Fanlararo bog'liqlik ko'magida shakllangan kompetensiyaning o'ziga xosligi inson ma'lum bir vazifani hal qilish yoki maqsadga erishish uchun o'zida bor barcha bilim, ko'nikma va tajribalarini qanchalik maqsadga muvofiq, chuqur

va keng qo'llay olishi, ularni uyg'unlashtira va integratsiya qila olishi bilan belgilanadi. Anglash va faoliyatning operatsion miqyosini, sintez va umumlashtirish imkoniyatlarini, ularning sifati va chuqurligini aks ettiradi, o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishni, ularga bog'liq faoliyat turlarini rivojlantiradi.

O'qituvchining qobiliyati, mayllari va individualligini ochib berishi, uning o'quv faniga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishi, ta'limning faol va interaktiv usullari jarayonida o'z "men"ini namoyon etish imkoniyatlarini yaratishi, shu jumladan, universitet muhiti doirasida – mana shular fanlararo integratsiyalashgan ta'limning mazmunini tashkil qiladi.

Zamonaviy milliy ta'lim paradigmasi barcha ta'lim darajalarida amalga oshirish mazmuni va prinsiplari bo'yicha jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu o'zgarishlar shaxsning madaniy va fuqarolik identifikatsiyasiga yo'naltirilgan.

Shunday qilib, ta'lim mazmuniga kiritilayotgan fanlararo bog'liqliklar uning muammolashtirilishini va yangiligini kuchaytirdi. Ilgari ma'lum bo'lgan materialni yangicha mazmunda ochib beradi. Avval o'zlashtirilgan bilimlarni aktallashtirib, ularni yangi bilimlar bilan yagona tizimga birlashtiradi. O'zaro yaqin kurslar o'rtasidagi bog'liqliklar esa hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirib borishga, masalan, sabab-oqibat aloqalarini ochib berishga yordam beradi. Barcha fanlar bo'yicha bilimlarning amaliy foydasi yanada ravshan bo'ladi. Bilimlarning mazmunini anglash esa ularni chuqurlashtirish va kengaytirishga qiziqishni mustahkamlaydi.

Chirchiq davlat pedagogika universitetidagi ta'lim muhiti ham pedagogik texnologiyalar, raqamli resurslarni amaliyotga joriy etish, ta'lim mazmunini yangicha loyihalash, talabalarning mustaqil ishlari hajmini oshirish, ijodiy va muammoli topshiriqlarni bajarishga yo'naltirish kabilar bilan izchil bog'lanmoqda.

Shu bois ham, Chirchiq davlat pedagogika universiteti ta'lim muhitini yaratish orqali kelajak o'qituvchilarini tayyorlashga jiddiy kirishgan.

Jamshid ALIMQULOV,
ChDPU o'qituvchisi

Dolzarb mavzu

Inson kashf etayotgan zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt ajoyibotlari dunyoni egallamoqda. Biroq insoniyat rivojlanib, o'ziga qulay dunyoni yaratish barobarida oddiy elementar burchlari, javobgarligini unutib qo'yayotgandek...

Atrof-muhitni asrash, tabiiy xazinalardan oqilona foydalanish, ekologiya masalalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra, "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muho-fazasidadir".

Har bir inson o'z fuqarolik pozitsiyasidan kelib chiqib, atrofidagi tabiiy muhit va resurslarni asrab-avaylab, ulardan oqilona foydalanishi zarur.

"Agar havoda chang va g'ubor bo'lmasa edi, inson ming yil yashagan bo'lardi..." degan edi buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino. Sir emas, yurtimizda so'nggi vaqtlarda ekologik muammo – havoning yuqori darajada ifloslanishi ko'zga tashlandi. Keng jamoatchilik buning asl sabablarini izlab, ushbu masalaga bor diqqat-e'tiborini qaratdi. Ijtimoiy tarmoqlarda hamma bu muammoning sabab va oqibatlarini xususida o'z talqinicha bong urdi.

Ushbu muammoga hukumat darajasida zudlik bilan chora ko'rish maqsadida 19-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni qabul qilindi. Bundan tashqari, Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident qarori qabul qilindi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Vazirlar Mahkamasi tizimidan chiqarilib, uning negizida Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tashkil etildi.

Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi:

- qulay ekologik holatni barqaror saqlash;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirish;
- o'rmonlarni ko'paytirish, global iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va cho'llanishga qarshi kurashish sohalarida yagona davlat siyosati va nazoratini amalga oshirish bo'yicha vakolatli organ bo'lishi belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya masalalari bo'yicha maslahatchisi bo'linmasi tashkil etildi. O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi, Hidrometeorologiya xizmati agentligi hamda Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi o'z faoliyatini Ekologiya qo'mitasi huzurida davom ettiradi.

Eng muhimi – Ekologiya qo'mitasi faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi. Shu bilan birgalikda qo'mita bir qator

